

BANKLARNING INVESTITSION SIYOSATINI OPTIMALLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI

PhD., Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID:0085-1545-6989-8462

OPTIMIZATION OF BANKS' INVESTMENT POLICY AND MANAGEMENT MECHANISMS

PhD, Dagarov Bekzod Muzaffar ugli

Independent Researcher at Tashkent State

University of Economics

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida investitsiya siyosatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini, uning bank faoliyatidagi o'rni hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida bank investitsiya siyosatini ishlab chiqishda risklarni boshqarish, likvidlikni ta'minlash, daromadlilikni oshirish va investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, xalqaro bank amaliyoti tajribasi asosida investitsiya siyosatini takomillashtirish, innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va milliy iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini kengaytirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya, investitsiya siyosati,

diversifikatsiya, raqamli texnologiyalar, risk, likvidlik.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of forming investment policy in commercial banks, its role within the overall framework of banking operations, and its impact on economic efficiency. In the course of the study, particular emphasis is placed on the management of investment risks, ensuring adequate liquidity, increasing asset profitability, and diversifying the investment portfolio. Furthermore, drawing on international banking practices, the paper substantiates key directions for improving investment policy, including the adoption of innovative financial instruments and the implementation of digital technologies aimed at enhancing the efficiency of investment activities. The findings of the study are of practical significance for ensuring the sustainable development of commercial banks, optimizing the use of financial resources, and expanding investment flows into the national economy.

Keywords: *commercial banks, investment, investment policy, diversification, digital technologies, risk, liquidity.*

KIRISH

Bankning investitsiya siyosati bu bankning investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarishga qaratilgan tadbirlar majmui bo'lib, u investitsiya aktivlarining optimal hajmi va tarkibini shakllantirish, ularning daromadlilikini maqbul risk darajasini saqlagan holda oshirishni ta'minlashga yo'naltiriladi.

Bank investitsiya siyosatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Bank investitsiya siyosati strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lib, investitsiya jarayonini tartibga soluvchi hujjatlashtirilgan me'yor va qoidalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi;

2. U bankning umumiy biznes (xo'jalik) siyosatidan kelib chiqadi hamda depozit, kredit, kadrlar, kommunikatsiya, foiz va boshqa siyosat turlari bilan o'zaro uzviy bog'liq va bir-biriga ta'sir etuvchi xususiyatga ega;

3. Investitsiya siyosati mijozlar va investitsiya instrumentlarini tanlashdagi ustuvor yo'nalishlar, shuningdek, ushbu ustuvorliklarni amalga oshiruvchi bank xodimlarining amaliy faoliyatini tartibga soluvchi me'yor va qoidalar orqali belgilanadi [1].

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, bankning investitsiya siyosati bankning umumiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblanib, u bankning investitsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi, banklar tomonidan investitsiya operatsiyalari va xizmatlarini amalga oshirish jarayonlarini tartibga soluvchi hamda bankning moliyaviy resurslaridan

oqilona foydalanishni, strategik maqsadlarga erishish yo'lida samarali investitsiya portfelini shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan hujjat bilan tasdiqlangan qoidalar, tamoyillar va protseduralar tizimini o'zida mujassam etadi. Ushbu strategik maqsadlar bankning umumiy biznes (xo'jalik) siyosatidan kelib chiqadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish hamda investitsiya muhitini yaxshilash jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda tijorat banklarining investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish, moliyaviy resurslarni real sektor loyihalariga yo'naltirish, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va risklarni oqilona boshqarish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarini jadal joriy etish, innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish, xalqaro bank amaliyoti va prudensial talablarni tatbiq etish tijorat banklarida investitsiya siyosatini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu jihatdan, tijorat banklarida investitsiya siyosatini shakllantirish va uni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiya oqimlarini kengaytirish va bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash nuqtayi nazaridan dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Mazkur yo'nalish bo'yicha bir qator xorijiy olimlar ham o'z ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan:

Larisa M. Voloshchenko va Alisa S. Kirizleeva o'z ilmiy tadqiqotlarida tijorat banklarining investitsion faoliyatini bank faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadilar. Mualliflar investitsion

faoliyatning nazariy asoslarini ochib berar ekan, bank investitsiyalarining mohiyati, maqsadlari va funksiyalarini batafsil tahlil qiladilar. Ularning fikricha, bank investitsiyalari nafaqat daromad olish manbai, balki bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi strategik instrument hisoblanadi. Asarlarda tijorat banklarining investitsion faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar, xususan, yuqori risk darajasi, uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi, investitsiya instrumentlari tarkibining cheklanganligi hamda bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi yoritib berilgan. Mualliflar investitsiya portfelini shakllantirishda risk va daromadlilik o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Shuningdek, Voloshchenko va Kirizleeva tijorat banklarida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'llarini taklif etib, portfelni diversifikatsiya qilish, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushini oqilona belgilash hamda investitsion qarorlar qabul qilishda zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish muhimligini asoslab beradilar. Ularning tadqiqotlari bank investitsiya siyosatini ishlab chiqishda nazariy va amaliy tavsiyalar manbai bo'lib xizmat qiladi [2].

Philip H. Dybvigning nazariyasi tijorat banklarida investitsiya siyosatini shakllantirish uchun muhim nazariy asos beradi. U ko'rsatadiki, banklar uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirayotganda, qisqa muddatli depozit majburiyatlari bilan muvozanatni saqlashlari lozim. Likvidlikni boshqarish va risklarni kamaytirish mexanizmlari, xususan, depozit sug'urtasi, banklarga barqaror investitsiya portfeli shakllantirish va strategik maqsadlarga

erishish imkonini beradi. Shu bilan, Dybvigning modeli tijorat banklarida investitsiya qarorlarini qabul qilishda samaradorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi [3].

D. Abiyevning ilmiy ishida tijorat banklarida investitsiya faoliyatini amalga oshirishning asosiy jihatlari, investitsiya siyosatining muhim elementlari va ushbu faoliyatga ta'sir etuvchi omillar puxta tahlil qilingan. Muallif banklar investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish uchun investitsion siyosatni ishlab chiqishda aktivlar rentabelligi, investitsion muhit, likvidlilik, depozitlar va ustav kapitali kabi omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada tijorat banklarining investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar, jumladan investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni kamaytirish mexanizmlari va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish yo'llari yoritilgan. Ushbu tadqiqot O'zbekiston tijorat banklari sharoitida investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish va strategik maqsadlarga erishish uchun ilmiy-amaliy asos sifatida muhim ahamiyatga ega.

N.Olimovanning ilmiy ishida tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligini tahlil etish va uni takomillashtirish yo'llarini o'z ichiga oladi. Muallif O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari, xususan AJ "Garantbank" misolida bank investitsiya siyosatini amalga oshirish jarayoni, investitsion bozor ichidagi o'rni va bank kapitalini jamlash hamda taqsimlash mexanizmlarini o'rganadi. Maqolada tijorat banklarining milliy iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantirishdagi ishtiroki baholangan, shu

bilan birga investitsion samaradorlikni oshirish uchun strategik takliflar ishlab chiqilgan. Bu takliflar orasida investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda banklar faoliyatini milliy iqtisodiyot talablariga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar mavjud. Tadqiqot tijorat banklarining investitsion strategiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy asosdir [4].

Tahlil va natijalar

Banklar iqtisodiy rivojlanishning asosiy moliyaviy institutlari sifatida, nafaqat kreditlash va depozit operatsiyalari orqali, balki investitsion faoliyatni rivojlantirish orqali ham milliy iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda banklarning investitsion siyosati ular moliyaviy barqarorligini saqlab qolish, risklarni boshqarish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, global moliya bozorlarining o'zgaruvchanligi, raqobat kuchayishi va investitsiya instrumentlarining diversifikatsiyasi banklarni investitsion strategiyalarini optimallashtirishga majbur qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklar investitsion siyosatni shakllantirishda resurslarni samarali taqsimlash, xavf-xatarlarni baholash va yuqori daromadli loyihalarni tanlash mexanizmlariga asoslanadi. Optimal investitsion siyosat banklar uchun nafaqat moliyaviy foyda, balki iqtisodiy barqarorlik va mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, banklarning investitsion faoliyatini boshqarish mexanizmlari – strategik rejalashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish,

portfel monitoringi va investitsion nazorat tizimlari – muhim ahamiyatga ega. Jahon tajribasida muvaffaqiyatli banklar investitsion siyosatni doimiy tahlil qilish va yangilash orqali bozor sharoitlariga moslashadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz bank sektorida investitsion siyosatni optimallashtirish va boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va sarmoyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

"Trastbank" XAB 2018-2024 yillar davomida aksiyadorlarga dividend to'lash siyosatini turlicha shakllantirgan. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividend stavkasi 2018 yilda 92,5% bo'lsa, 2019 yilda 61,3% gacha pasaygan. 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 101,4% ga oshgan, 2022 yilda esa 120,5% ni tashkil etgan. 2023 yilda bank dividend stavkasini 160,5% gacha ko'targan, bu esa oldingi yillarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichdir. 2024 yilda esa oddiy aksiyalar bo'yicha dividend keskin kamayib, 13,3% ga tushgan. Hisoblangan va to'langan dividendlar miqdori 2018 yilda 92 709,98 mln so'mni tashkil etgan. 2019 yilda bu ko'rsatkich 98 219,15 mln so'mga yetgan. 2020 yilda bank 228 380,18 mln so'm dividend to'lagan. 2022 yilda dividend miqdori keskin oshib, 458 673,54 mln so'mga yetgan. 2023 yilda rekord darajadagi 899 164,33 mln so'm dividend to'langan. 2024 yilda esa dividend hajmi sezilarli ravishda kamayib, 133 012,88 mln so'mni tashkil qilgan. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend stavkasi 2018-2024 yillar davomida doimiy ravishda 15% bo'lib qolgan. Ushbu aksiyalar bo'yicha har yili 3,45 mln so'm dividend hisoblangan va to'langan.

1-jadval

"Trastbank" XABning aksiyalar bo'yicha dividend to'lovlari tahlili

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2022	2023	2024
Oddiy aksiyalar bo'yicha:	92,5 foiz	61,3 foiz	101,4 foiz	120,5 foiz	160,5 foiz	13,3 foiz
- Hisoblangan va to'lab berilgan dividendlar miqdori (mln.so'm):	92709,98	98219,15	228380,18	458673,54	899164,33	133012,88
Imtiyozli aksiyalar bo'yicha:	15 foiz	15 foiz	15 foiz	15 foiz	15 foiz	15 foiz
- Hisoblangan va to'lab berilgan dividendlar miqdori (mln.so'm):	3,45	3,45	3,45	3,45	3,45	3,45

"O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan 2018–2024 yillar davomida chiqarilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, har yili ularning nominal qiymati 19 so'mni tashkil etgan. Bu davrda aksiyalar soni har yili o'zgarmay, 370 million donani tashkil qilgan. Har yili imtiyozli

aksiyalar bo'yicha dividend stavkasi 23 foiz darajasida saqlangan. Aksiyalar hajmi 2018 yildagi 7 030 million so'mdan 2023 yilda 4 634 513,9 million so'mgacha sezilarli darajada oshgan. Ustav kapital hajmi ham yildan-yilga ortib borgan bo'lib, bu bankning moliyaviy barqarorligini aks ettiradi.

2-jadval

"O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan chiqarilgan imtiyozli aksiyalar tahlili

Nº	Sana	Imtiyozli aksiyalar nominal qiymati (so'm)	Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend (nominalga nisbatan foizda)	Imtiyozli aksiyalar soni (dona)	Imtiyozli aksiyalar hajmi (mln. so'm)	Ustav kapital hajmi (mln. so'm)
1.	2018	19	23%	370 000 000	7 030	1 451 843,47
2.	2019	19	23%	370 000 000	7 030	1 876 599,72
3.	2020	19	23%	370 000 000	7 030	4 634 513,90
4.	2021	19	23%	370 000 000	7 030	4 634 513,90
5.	2022	19	23%	370 000 000	7 030	4 634 513,90
6.	2023	19	23%	370 000 000	7 030	4 634 513,90
7.	2024	19	23%	370 000 000	7 030	4 628 941,9

“Ipoteka bank” ATIB tomonidan 2018–2024 yillarda chiqarilgan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, ularning nominal qiymati har yili 1 so‘mni tashkil etgan. Dividend stavkasi har yili 25 foiz darajasida saqlangan. Imtiyozli aksiyalar soni

8 milliard 52 million donani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘zgarmagan. Aksiyalar hajmi 2018 yilda 8 052 million so‘m bo‘lsa, 2024 yilda 3 834 217,64 million so‘mgacha oshgan. Shuningdek, ustav kapital hajmi yildan yilga izchil o‘sib borgan.

3-jadval

“Ipoteka bank” ATIB tomonidan chiqarilgan imtiyozli aksiyalar tahlili

№	Sana	Imtiyozli aksiyalar nominal qiymati (so‘m)	Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend (nominalga nisbatan foizda)	Imtiyozli aksiyalar soni (dona)	Imtiyozli aksiyalar hajmi (mln. so‘m)	Ustav kapital hajmi (mln. so‘m)
1.	2018	1	25%	8 052 000 000	8 052	957 715,95
2.	2019	1	25%	8 052 000 000	8 052	985 613,50
3.	2020	1	25%	8 052 000 000	8 052	2 817 444,13
4.	2021	1	25%	8 052 000 000	8 052	2 869 839,26
5.	2022	1	25%	8 052 000 000	8 052	2 989 584,34
6.	2023	1	25%	8 052 000 000	8 052	2 989 584,34
7.	2024	1	25%	8 052 000 000	8 052	3 834 217,64

2018–2024 yillar davomida “Trastbank” XAB aksiyadorlarga dividend to‘lash siyosatini o‘zgaruvchan shaklda amalga oshirgan. Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend stavkalari sezilarli o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatgan: 2018 yilda 92,5% bo‘lgan ko‘rsatkich 2019 yilda 61,3% ga tushib, 2020 yilda 101,4% ga oshgan. 2022 va 2023 yillarda dividend stavkalari 120,5% va 160,5% ga yetib, rekord darajaga chiqqan bo‘lsa, 2024 yilda u keskin kamayib, 13,3% ni tashkil qilgan. Hisoblangan va to‘langan dividendlar miqdori ham bu tendensiyanı tasdiqlaydi: 2018 yilda 92 709,98 mln so‘mdan 2023 yilda 899 164,33 mln so‘mgacha oshib, 2024 yilda 133 012,88 mln so‘mga tushgan. Shu bilan birga, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend stavkasi

barqaror bo‘lib, har yili 15% ni tashkil qilgan va 3,45 mln so‘m miqdorida to‘langan.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan chiqarilgan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, nominal qiymat va aksiyalar soni o‘zgarmasdan saqlangan, dividend stavkasi 23% darajasida barqaror bo‘lgan. Biroq, aksiyalar hajmi 2018 yildagi 7 030 mln so‘mdan 2023 yilda 4 634 513,9 mln so‘mgacha oshgan, bu esa bankning ustav kapitali o‘sishi bilan uyg‘unlashgan va moliyaviy barqarorlikni ta’kidlaydi.

“Ipoteka bank” ATIB tahliliga ko‘ra, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha nominal qiymat 1 so‘mni tashkil etgan va dividend stavkasi har yili 25% bo‘lib qolgan. Aksiyalar soni 8,052 milliard dona bo‘lib, o‘zgarmasdan qolgan. Aksiyalar hajmi va ustav kapitali 2018 yildan

2024 yilgacha izchil o'sib, bankning barqaror moliyaviy pozitsiyasini ko'rsatgan.

Umuman olganda, jadvallar tahlili shuni ko'rsatadiki, banklar dividend siyosatini shakllantirishda o'z strategik maqsadlari va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan. "Trastbank" XAB oddiy aksiyadorlar uchun yuqori daromadli, ammo o'zgaruvchan siyosatni qo'llagan bo'lsa, imtiyozli aksiyalar bo'yicha barqaror dividendlar saqlangan. Shu bilan birga, "O'zsanoatqurilishbank" va "Ipoteka bank" ATB moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va aksiyadorlar manfaatlarini muvozanatlash maqsadida dividend stavkalarini doimiy ushlab qolgan. Bu esa banklarning investitsion siyosati va kapital boshqaruvi mexanizmlarining samaradorligini aks ettiradi.

Xulosa

Tijorat banklarida investitsiya siyosatini shakllantirish bank faoliyatining strategik va iqtisodiy jihatdan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Samarali investitsiya siyosati banklarga likvidlikni ta'minlash, risklarni

boshqarish va investitsiya portfelini optimal tarzda diversifikatsiya qilish imkonini beradi, shu bilan birga daromadlilikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xorijiy tajriba va ilg'or moliyaviy instrumentlarni qo'llash, shuningdek raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali banklar investitsion faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu bilan birga, samarali investitsiya siyosati bankning umumiy strategik maqsadlariga mos kelishi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashi va milliy iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini rag'batlantirishi zarur. Kelgusida, investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali tijorat banklari nafaqat o'z rentabelligini oshiradi, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va mamlakatda sarmoyaviy muhitni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida investitsiya siyosatini samarali shakllantirish va uni muntazam takomillashtirib borish strategik ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Куст О.О. Инвестиционная активность и управление портфелем ценных бумаг в деятельности банков // РИСК.- 2015. -№ 8. - С. 93-104.
2. Волощенко Л. М., Киризева А. С. Теоретические аспекты инвестиционной деятельности коммерческих банков: проблемы инвестирования и пути их решения // Экономика и управление. – 2015. – №3. – С. 45–53.
3. Dybvig F. H. Bank runs, deposit insurance, and liquidity // Journal of Political Economy. – 1983. – Vol. 91, №3. – P. 401–419.
4. Olimova N. Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari // Ekonomika i innovatsiya. – 2020. – №4. – S. 32–39.
5. www.cbu.uz- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.